



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

ANDIJON VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI TARKIBIDAGI BOBUR YODGORLIK MUZEYI: TASHKIL ETILISH TARIXI VA ILMIY ASOSLARI

Hasanova Feruza Rahmonalievna

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti "Muzeysunoslik" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi tarkibidagi Bobur yodgorlik muzeyining tashkil etilishi, kolleksiya to'plash jarayonlari, ekspozitsiyaning badiiy va ilmiy asoslari hamda Bobur va Boburiylar sulolasi tarixi bilan bog'liq muzey ekspонатlarining ilmiy-amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ilmiy manbalar, muzey materiallari va tasviriy san'at namunalari asosida ekspozitsiya shakllanishining konseptual jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bobur, Boburiylar sulolasi, muzeysunoslik, ekspozitsiya, manba, miniatyura, tasviriy san'at, Akbarshoh, Shoh Jahon, Toj-Mahal. ekspozitsiya, tarixiy manbalar

Аннотация: В статье рассматривается организация Мемориального музея Бабура в составе Государственного музея истории и культуры Андижанской области, также процессы комплектования коллекции, художественные и научные основы экспозиции, научно-практическое значение музейных экспонатов, связанных с историей Бабура и династии Бабуридов. В исследовании уделяется внимание концептуальным аспектам формирования экспозиции на основе научных источников, музейных материалов и образцов изобразительного искусства

Ключевые слова: Бабур, династия Бабура, музееведение, экспозиция, источник, миниатюра, изобразительное искусство, Акбар-шах, Шах-Джахан, Тадж-Махал. экспозиция, исторические источники

KIRISH

Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasining tarixiy-ma'naviy merosi jahon sivilizasiyasi taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. Ularning siyosiy, madaniy va me'moriy faoliyatini o'rganishda muzeylar muhim ilmiy-nazariy hamda ma'rifiy maskan sifatida xizmat qiladi. Bobur yodgorlik muzeyi bo'limi Andijon viloyat ijroiya komitetining 20.02.1990 yil № 41/3- sonli qarori bilan tashkil topgan ana shunday ilmiy markazlardan biri bo'lib, uning ekspozitsiyasi Bobur hayoti, ijodi va Boburiylar davrining keng qamrovli tarixini yoritishga qaratilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasining tarixi, madaniy merosi hamda ularning jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi haqida batafsil ma'lumotlar olish mumkin bo'lgan muhim ilmiy-ma'rifiy maskanlardan biri — Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining Bobur yodgorlik muzeyi bo'limidir. Bu muzey nafaqat Bobur



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

shaxsiyati va uning ijodini o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun, balki keng jamoatchilik, talabalar va yoshlar uchun ham qimmatli manba sifatida xizmat qiladi.

Muzeyning tashkil etilishi tarixi

Muzeyning tashkil etilishi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligiga bag'ishlab amalga oshirilgan keng ko'lamli madaniy-ta'limiy tadbirlar doirasida ro'y berdi. 1990 yilda Andijon shahri markazida joylashgan Xo'jar Noib madrasasi binosi ta'mirlanib, muzey uchun maxsus moslashtirildi. Madrasa hozirgi kunda ham arxitekturaviy-tarixiy yodgorlik sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lib, muzeyning qurilma tuzilishi Bobur davri madaniy muhitini his qilishga imkoniyat yaratadi. Madrasa Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Umar Shayx Mirzo qarorgohining yonida joylashgan bo'lib, keyingi etti-sakkiz asr davomida bir necha marta ta'mirlangan. Ushbu me'moriy yodgorlik 27 ta hujra, uchta gumbazli darsxona va talabalar uchun mo'ljallangan kichik yopiq ayvonli namozxonalardan iborat.

Tarixiy manbalarga ko'ra, madrasa XIV asrda barpo etilgan. Xususan, olim Hamidullo Navziyning "Nusrat ul-qulub" asarida keltirilgan ma'lumotlarda madrasa Xo'jar Noib nomli mahalliy hukmdor tomonidan qurilgani qayd etiladi. Bu ma'lumot madrasa tarixining ilmiy asoslanganligi va uning o'rta asrlar Sharqi me'morchilik an'alarining muhim namunasi ekanini tasdiqlaydi. Madrasa Andijonning o'sha davrdagi siyosiy, madaniy va diniy hayotida salmoqli o'rin tutgan bo'lib, keyinchalik Bobur yodgorlik muzeyi uchun munosib maskan sifatida tanlangani bejiz emas.

Bugungi kunda Bobur yodgorlik muzeyi Boburning bolalik davri, siyosiy faoliyati, ijodiy merosi, "Boburnoma" asari, ekologik va geografik kuzatuvlari, shuningdek, Boburiylar sulolasi tomonidan Hindistonda barpo etilgan buyuk tamaddun haqidagi boy ekspozitsiyalar bilan boyitilgan. Muzeyda Bobur davriga oid qimmatli qo'lyozmalar, tarixiy nusxalar, etnografik jihozlar, xarita va fotomateriallar joy olgan bo'lib, ular tadqiqot ishlari uchun muhim manba vazifasini o'taydi.

Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi tarkibidagi Bobur yodgorlik muzeyi Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasining tarixiy-madaniy merosini o'rganish, saqlash va targ'ib qilish maqsadida tashkil etilgan muhim ilmiy-ma'rifiy maskanlardan hisoblanadi. Muzey tashkil etilishi jarayonida respublika miqyosida keng qamrovli ilmiy izlanishlar, arxiv materiallari bilan ishlash, kolleksiya to'plash va ekspozitsiyani ilmiy asosda shakllantirish bo'yicha maxsus ishlar amalga oshirilgan.

Muzey tashkil etilishiga rahbarlik qilgan ishchi guruh tarkibiga Andijon Davlat Universiteti professori, falsafa fanlari doktori G'ani Xolmatovich Abdulaev, tarixchi olim Sayfiddin Jalilov, shuningdek, muzeyshunos mutaxassislar Ubaydulla Sodiqov, Dilshodbek Yusufxonov va To'liqinjon Qo'ldosh kabi tadqiqotchilar kirgan. Ishchi guruh faoliyati muzeyning ilmiy-konseptual yo'nalishini belgilashda muhim omil bo'lgan.

Ekspeditsion tadqiqotlar doirasida ishchi guruh a'zolari Toshkent shahridagi qator ilmiy markazlarda — Adabiyot muzeyi, Davlat tarixi muzeyi va Qo'lyozmalar fondida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ushbu muassasalarda saqlanayotgan tarixiy qo'lyozmalar, nodir



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

nashrlar, arxiv hujjatlari hamda Bobur va Boburiylar haqidagi tasviriy materiallar asosida muzey ekspozitsiyasi uchun zarur manbalar to'plangan.

To'plangan manbalar asosida mahalliy va respublika miqyosidagi iste'dodli rassomlarga Bobur va Boburiylar sulolasi tarixi bilan bog'liq muhim voqealarni aks ettirgan tasviriy asarlar yaratish yuzasidan maxsus buyurtmalar berilgan. Bu ishlar natijasida ekspozitsiyada tarixiy voqealarning badiiy talqini ilmiy manbalar bilan uyg'un holda namoyish etilgan.

Ekspozitsiya va uning mazmuni

Ekspozitsiya zali, avvalo, andijonlik rassomlar tomonidan yaratilgan tarixiy janrdagi asarlar bilan boyitilgan. Kirish qismida Zahiriddin Muhammad Boburning ota-onasiga nisbatan samimiy muhabbatini ifodalagan so'zlari keltirilishi ekspozitsiyaning g'oyaviy yo'nalishini belgilaydi va Bobur shaxsiyatining yuksak ma'naviy qudratini ko'rsatib beradi.

Ekspozitsiya zalining markaziy qismida XVII asr musavviri Xondamir tomonidan chizilgan Bobur portreti miniatyurasi nusxasi joylashtirilgan. Ushbu nusxa andijonlik rassom Najmiddin Qoziev tomonidan mahorati bilan ko'chirilgan bo'lib, Boburning tarixiy qiyofasini ilmiy-manbaiy asosda tiklashga xizmat qiladi. Ekspozitsiyada Boburning taxtga o'tirishi, Andijon qal'asi uchun jang, ov manzaralari, Xo'ja Ahror Valiyning dafn marosimi, Xonzoda Beginning Andijonni tark etishi va Shayboniyxon bilan bo'lgan to'qnashuvlar kabi muhim tarixiy voqealarni aks ettiruvchi asarlar joy olgan. Ushbu asarlar Bobur hayotidagi siyosiy va ma'naviy bosqichlarni badiiy-estetik talqinda yoritadi.

Bobur hayotini yorituvchi maxsus asarlar esa ekspozitsiyani Ko'rgazmaning yana bir qismida rassom Hasanboy Saidov tomonidan yaratilgan "Bobur Baroqo'hda", "Gulxan atrofida o'tirgan Bobur", "Jangdan qaytgan Bobur" va "Boburning Andijonni tark etishi" kabi asarlar namoyish etilgan. Bu asarlarda Boburning sarkarda sifatidagi faoliyati, qiyin sharoitlarda ham xalq va yurt manfaatini birinchi o'ringa qo'ygan lider sifatidagi qiyofasi, shuningdek, uning insonparvarlik fazilatlarini keng yoritilgan.

Ekspozitsiyada, shuningdek, "Boburnoma" asariga ishlangan miniatyuralar, Boburiylar sulolasining shajarasi va sulola tarixiga oid qator tasviriy materiallar ham taqdim etilgan bo'lib, ular Boburiylar davrining keng qamrovli ilmiy manzarasini yaratadi.

Boburiylar sulolasining tarixiy bosqichlari joy olgan bo'limda Hindistondagi muhim harbiy voqealardan biri – Panipat jangiga bag'ishlangan miniatyura va andijonlik rassom Ulug'bek Boltaboevning "Zaharlangan Bobur" asari joy olgan. Shu bilan birga, Humoyun Mirzoning taxtga chiqishi va u bilan bog'liq siyosiy voqealarga oid ilmiy materiallar ham taqdim etilgan.

Boburiylar sulolasining yirik hukmdori — Akbarshoh faoliyatiga bag'ishlangan ekspozitsiyaning navbatdagi qismida uning hukmronlik davrida Hindistonda markaziy hokimiyat mustahkamlangan, shaharsozlik, qurilish va me'morchilik sohalarida ulkan islohotlar amalga oshirilgan. Agra va Dehli kabi shaharlardagi yirik qurilishlar aynan Akbarshoh davrida boshlangani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Lal Qal'a va Agra Fort kabi me'moriy majmualar ana shu davrning yorqin namunasi. Boburiylar sulolasining eng mashhur hukmdorlaridan biri — Shoh Jahon davri yoritilgan davr ekspozitsiyaning eng



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

muxim qismlaridan biri xisoblanadi. Shoh Jahonning xukumdorligi davrida Hindiston uchun iqtisodiy, madaniy va me'moriy jixatdan gullab-yashnagan davr bo'lganligi, Sultonġ me'morchilik san'atining go'zal namunasi bo'lgan Toj Mahal aynan shu davrda Mumtoz Mahal xotirasiga bag'ishlab barpo etilganligi qayd etilgan.

Ekspozitsiyaning yakuniy qismida Avrangzeb Alamgir va undan keyingi Boburiylar sulolasi tarixiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu bo'limda Boburiylar davlatining so'nggi davrlari tarixi, ularning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyati keng qamrovli tarzda yoritilgan. Shu jumladan, davlatning inqiroz omillari — markaziy hokimiyatning zaiflashishi, mintaqaviy hokimiyatlar va vazirliklar o'rtasidagi ixtiloflar, ichki siyosiy parchalanish hamda boshqa kuchli mintaqaviy aktorlarning ta'sirining ortishi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Bundan tashqari, ekspozitsiyada Avrangzebning siyosiy siyosati va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ham taqdim etilgan. Xususan, uning diniy va ma'muriy siyosati, markaziy hokimiyatning mahalliy boshqaruvchilarga nisbatan munosabati hamda buning davlatning barqarorligiga va uning mudofaa qudratiga ko'rsatgan ta'siri ko'rsatilgan. Shu bilan birga, ekspozitsiyada Panipat va boshqa harbiy to'qnashuvlardan keyingi hududiy va siyosiy o'zgarishlar, Boburiylar sulolasining markaziy hokimiyat bilan bog'liq zaiflashuvi ham vizual va tasviriy materiallar orqali namoyon etiladi.

Ushbu tahliliy qism muzeyda tarixi va vizual san'atni uyg'unlashtirib, Boburiylar sulolasining so'nggi bosqichlarini kengroq ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan tushuntirish imkonini beradi. Bu esa ekspozitsiyaning nafaqat estetik, balki ta'limiy va ilmiy ahamiyatini ham kuchaytiradi, tashrif buyuruvchilarga Boburiylar davlatining siyosiy va ijtimoiy jarayonlarini to'liqroq idrok etish imkonini yaratadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi tarkibidagi Bobur yodgorlik muzeyi milliy va mintaqaviy tarixi, madaniy merosni saqlash va ilmiy tadqiq qilishda muhim ahamiyatga ega.

Muzeyning tashkil etilishi tarixiy manbalar, "Boburnoma" asari va tasviriy materiallarga asoslangan ilmiy prinsiplar bilan bog'liq bo'lib, ekspozitsiya orqali Boburiylar davrining siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlari keng qamrovli namoyon etiladi.

Shuningdek, muzey nafaqat tarixiy va vizual ma'lumotlarni taqdim etish, balki mahalliy tadqiqotchilar va aholi uchun ilmiy va ta'limiy imkoniyatlar yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa Bobur yodgorlik muzeyi muzeysunoslik, tarixiy tadqiqot va madaniy merosni saqlashni birlashtirgan markaziy ilmiy va ta'limiy muassasa sifatida ahamiyatga ega ekani isbotlanadi.

Bobur yodgorlik muzeyi va uning atrofida amalga oshirilayotgan ilmiy-ma'rifiy ishlar nafaqat bir tarixiy shaxsni ulug'lash, balki milliy o'zlikni anglash, yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash va tarixiy merosni kelajakka etkazishda strategik ahamiyatga ega madaniy-intellektual platforma sifatida xizmat qiladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ermuratova Sh. O'zbekiston uy muzeylarining tarixiy rivojlanishi va madaniy hayotda tutgan o'rni (Toshkent viloyati va Toshkent shaxri misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023.
2. Abdurazzoqov A. Abadiy barhayot siymolar. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2019. – 192 b.
3. Ismoilova va boshqalar. Muzeyshunoslik ensiklopediyasi. – T.: "Lesson press", 2023. – 266 b.